



Turkic
World



Мемлекет тарихы
институты



Жас тарихшылардың
республикалық қауымдастыры



ҚАЗАҚСТАН ЖӘНЕ ТҮРКІ ӘЛЕМІ:

қоғамдық ғылымдар саласындағы
өзекті мәселелер

KAZAKHSTAN AND THE TURKIC WORLD:

actual problems in the field
of social sciences





ҚР БФМ ҒЫЛЫМ КОМИТЕТІ МЕМЛЕКЕТ ТАРИХЫ ИНСТИТУТЫ
ЖАС ТАРИХШЫЛАРДЫҢ РЕСПУБЛИКАЛЫҚ ҚАУЫМДАСТЫҒЫ

**«Қазақстан және Түркі әлемі:
қоғамдық ғылымдар саласындағы өзекті мәселелер»
халықаралық онлайн симпозиум материалдарының**

ЖИНАҒЫ

COLLECTION

**of materials of the international online symposium
«Kazakhstan and the Turkic world: actual problems in
the field of social sciences»**

Нұр-Сұлтан, 2021

УДК 327

ББК 66.4

Қ 18

*Қазақстан Республикасы Білім және ғылым министрлігі
Ғылым комитеті Мемлекет тарихы институтының Ғылыми кеңесі ұсынған.*

Бас редактор

Мемлекет тарихы институтының директоры,
тарих ғылымдарының докторы, профессор Е.А. Әбіл

Құрастырушылар:

*Қ.Б. Әддиет, Ж.Н. Жақсыгелдинов, Д.А. Жұмағалиев,
Б.Ш. Ыдырысов, Ә.М. Бәдиеев, А.Сатанов*

Қазақстан және Түркі әлемі: қоғамдық ғылымдар саласындағы өзекті мәселелер. Халықаралық онлайн симпозиум материалдары. 24 сәуір 2021 жыл. – Нұр-Сұлтан, 2021. – 456 бет.

ISBN 978-601-08-0831-7

Жинаққа Түркі әлемінің тіл, әдебиет, тарих, мәдениет, өнер, халықаралық қатынастар және саясат, рухани құндылықтары мен экономикалық мәселелері жаңаша зерделеуге арналған түркі әлемінің жас ғалымдары мен зерттеушілерінің мақалалары енгізілген.

Симпозиум материалдары Түркі әлемінің ортақ әдеби мұрасын насиҳаттау мен катар қазіргі түркі халықтары әдебиеттерінің ортақ тұстары мен ерекшеліктерін анықтау, қазіргі түркі мемлекеттері арасындағы саяси, экономикалық, әлеуметтік-мәдени, білім беру және ғылыми қарым-қатынастарын еларалық байланыстар және көпжакты байланыстардың дамуындағы проблемалар мен олардың шешімдерін, сондай-ақ Қазақстанның халықаралық бастамалары мен аткарған іс-шарапарын көрсетуге арналған.

Жинақ көпжакты қарым-қатынас, түркі мемлекеттерінің ынтымақтастығы мәселелерімен шұғылданатын ғылыми қызметкер-мамандарға, сонымен қатар студент, магистрант, докторант жастағарға, жалпы тақырыпқа қызығатын барша оқырмандарға арналады.

ISBN 978-601-08-0831-7

УДК 327

ББК 66.4

© Мемлекет тарихы институты, 2021

© Жас тарихшылардың республикалық қауымдастыры

Kozimjon Olimov,	
Markaziy Osiyo dinlari evolyutsiyasi.....	275
Fatimat Polchaeva,	
Роль Золотой Орды в развитии политических институтов государств Дагестана.....	278
Mukhiddinjon Primov,	
Ўрта Осиё республикалари картографиясини ривожлантиришда Тошкент картография фабрикасининг ўрни.....	281
Bayram Quliyev,	
The technical and natural science in period of Ilkhanates.....	286
Oybek Rajabov,	
Mahmud Torobiy qal'asi tarixi.....	291
Shokhjahon Rashidov,	
From the history of local administration of the Uzbek SSR (50s of the XX century).....	295
Азизбек Сапарниязов,	
Известная экспедиция: метод расширения империи и дорога к несметным богатствам.....	298
Фаррух Темиров,	
Садриддин айний илмий меросининг жаҳон илм-фани тараккиётидаги ўрни.....	303
Феруза Ўтаева,	
Мангит ҳукумдорларининг фаолияти ва шахсияти мустақиллик йилларидағи даврий матбуют талқинида.....	310
Мадияр Утебаев,	
Этикет супругов в системе внутрисемейного стереотипного отношения у каракалпаков.....	316
Qudratjon Xakimjonov,	
Katta Farg'onan kanalining qisqacha tarixi.....	323
Тальят Ҳалимов,	
Ashtarkoniylar va Boburiylarning siyosiy munosabatlari.....	325
Шамсиева З.А.,	
Манбаларда Бухоро воҳаси этник тарихи ва этногенези масалалари.....	328
Вазира Шодыева,	
Об истории формирования корейской diáспоры в Приаралье (к примеру Республика Узбекистан и Казахстан).....	334

MAHMUD TOROBIY QAL'ASI TARIXI

Oybek Iskandarovich Rajabov,

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi (O'zbekiston Respublikasi)

Annotasiya: Maqolada Buxoro viloyati Jondor tumani hududida joylashgan Torob qal'asining vujudga kelishi, eramizdan avvalgi davrlardari tarixiy shakilanish jarayoni, qal'a va qo'rg'onlarning miloddan avvalgi 4-3 asrlardan boshlab qurilganligi (shakllanganligi) arxeologik tadqiqotlar orqali fanda isbotlangan. Ilk o'rta asrlardan boshlab Torob qishlig'i va unga yaqin hududlardagi qishloqlar qatori obod maskan bo'lgani, hududda bozor, savdo maskani, hunarmandchilik rastalari, manzilgohlar qad roslagani shuningdek, qal'a-qo'rg'onning to'rt tomonida to'rtta darvoza, masjid, quduq, maxsus qo'riqlash minoralari (shinaklar), VIII asr boshlarida arablar istilosini davrida Torob qal'a qo'rg'onining inqirozga yuz tutgan bo'lsa-da, undan keyingi davrlarda vujudga kelgan sulolalar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davrida rivoj topganligi, Islom dini va uning yuksalishida mazkur maskandan yetishib chiqqan olimlar o'z hissalarini qo'shgan. Qadimiy qo'rg'on hozirgi davrda 4-5 hektar atrofida bo'lib, tepalikda Mahmud Torobiyning ramziy qabri, uning oldida quduq (chuqurligi taxminan 40 metr atrofida) hamda eski uylarning paxsalari va masjidning joylashgan o'rni mavjud.

Kalit so'zlar: Torob qal'asi, Zarafshon daryosi, Moxondaryo, qal'a, darvoza, minora, quduq.

HISTORY OF FORTRESS OF MAKHMUD TOROBI

Annotation: Given is the article providing information of Torob Fortress in Jondor district of Bukhara region, the process of historical formation in BC, the construction of castles and fortresses from the 4th to the 3rd centuries BC through which are also stated in archeological researches. Since the early Middle Ages, the village of Torob and the surrounding villages have been prosperous including markets, shops, handicraft stalls, and settlements on the four sides of the fortress. The article also gives information about the four gates around the city, the mosque, the well, the special guard towers (shinaks), the dynasties that emerged in later periods. Clearly, although the Torob fortress was in crisis during the Arab conquest in the early eighth century it was developed during the reign of the Karakhanids, Khorezmshahs. The square is now about 4-5 hectares comprising of symbolic tomb of Mahmud Torobi on the hill and a well in front of it, (about 40 meters deep) and the roofs of old houses and the location of the mosque.

Key words: Fortress Torob, Zarafshan river, Mokhondarya, fortress, water well, gateway, tower.

Yurtimizning kichik bir manzilgohi hisonlangan Torob qishlog'ini paydo bo'lishi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ushbu maskan hozirgi davrda Buxoro viloyatining Jondor tumani hududida bo'lib, qadimda Zarafshon daryosi quyi oqimidagi eng xush-

manzara va betakror maskanlardan biri bo'lgan. Keyingi davrda maydonining asosiy qismi g'alla, paxta, bog' va uzumzorlar, katta-kichik qishloqlar o'rni bo'lgan bu qadimiy voha qadim zamonlarda nihoyatda sersuv, nabotot va hayvonot dunyosi ham boy va xilma-xil bo'lgan. Zarafshonning quyi oqimi o'zani va shahobchasi bo'yalarida, suvloq yerlarda bundan 3-4 ming yil muqaddam Buxoro va uning atrofidagi manzilgohlarda qadimdan aholi istiqomat qilgan hamda chorvachilik va dehqonchilikni kasb eta boshlaganlar. Xuddi shu davrlarda to'lib toshgan Zarafshon daryosi Moxondaryo orqali Amudaryoga borib quyilgan. Miloddan avvalgi ikki ming yillikda Zarafshon daryosining suvi kamayib, Amudaryoga quyilishi barham topadi. Ammo aholi suv bo'yini va unga tutash hududlarda o'z turar joy - maskanlarini barpo etib, hududni o'zlashtirishni davom ettirganlar.

"Samariya" (Samarqand mozorlari zikri) asarining muallifi Abu Tohirxoja Samarqandiy o'zining kitobida shunday yozadi: Zarafshon daryosikim, uni Ko'hak deb yuritadilar. Boshlab kunchiqar tog'lardan chiqib, unga Iskandar bulog'i - Iskandar ko'lining suvi va Maschoh tog'laridan chiqadigan buлоqlar qo'shiladi. Boshqa suvlar va buлоqlar bilan birikib, daryo bo'lib Buxoro va Qorako'lгacha borib yetadi. Ko'hak daryosining uzunligi 120 tosh (farsax)dir [Абу Тохирхўжа Самарқандий. 2009.-Б.122.]. Farsax (farsang-parsang, porasang) - Sharqda, jumladan O'rta Osiyoda qadimdan ishlatalib kelgan masofa o'lchov birligi. Bir farsax 9-12 ming qadamga yoki 6-8 km.ga teng bo'lgan masofa). Xuddi ana shu Zarafshon daryosi bo'yida qad rostlagan va odamlarning muqum yashab qolish maskaniga aylangan Torob qishlog'i vohadagi Varaxsho, Romush, Poykant kabi qadimiy shaharlar bilan bir paytning o'zida paydo bo'lgan. Torob qishlog'inining tepalik ustida qurilganligi hamda atrofi baland qal'a (paxsa devor) bilan o'rab olinganligi ham qishloqning qadimiyligini anglatib turadi. Chunki bunday qal'a va qo'rg'onlar asosan eramizdan avvalgi 4-3 asrlardan boshlab qurilganligi arxeologik ilmiy tadqiqotlar orqali fanda isbotlangan.

Ilk o'rta asrlardan boshlab esa Torob unga yaqin hududlardagi qishloqlar qatori obod maskan bo'lgan. Manzilgohda bozor, savdo-sotiq maskanlari, hunarmandchilik rastalari, odamlarning turar joy-manzilgohlari qator tizilishgan. Shuningdek, qal'a-qo'rg'onning to'rt tomonida to'rta darvoza, maxsus qo'riqlash minoralari (shinaklar), suv oqib turuvchi ariqlar mavjud bo'lgan.

VIII asr boshlarida O'rta Osiyoda arablar istilosи hamda uning asoratlardan Torob qo'rg'oni ham chetda qolmagan. Torob qal'a - qo'rg'oni arablar bosqini davrida inqirozga yuz tutgan bo'lsa-da, undan keyin davrlarda vujudga kelgan sulolalar, ya'ni Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davrida ushbu maskan yanada rivojlandi. Bu davrda Islom dini va uning yuksalishida hududdan chiqqan olimu-fuzalolar o'z hissalarini qo'shdilar. Jumladan, Abdulkarim as-Sam'oniyning "Nasabnama" (Al-Ansob) kitobida Torob qishlog'i (Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамими ас-Самъоний. 2017.-Б.86.) - Buxoro qishloqlaridan biri bo'lib, Xunbun (hozirda Jondor tumanidagi Torob va Xumin qishloqlari) qishlog'i yaqinida joylashgan. Abul Fazl Mahdiy ibn Ishkob at-Torobiy Torob qishlog'iда yashaganliklari ta'kidlangan. Imom al-Buxoriyning ustozlari Muhammad ibn Salom al-Paykandiydan, Ibrohim ibn Ash'as hamda Abu Soli Muhammad ibn Ismoil ar-Roziydan hadis rivoyat qilganlar. O'zlaridan

esa Abdulloh ibn Muhammad ibn Horis va Ubaydulloh ibn Munih ibn Sayf hadis rivoyat qilganlar. Hijriy 265 (milodiy 879) yilda vafot etganlar, qabrlari Torob tepaligidan pastda shimoliy qabristonda [Абу Саъд Абдулкарим ибн Мұхаммад ибн Мансур ат-Тамими ас-Самъоний. 2017.-Б.86., Садриддин Салим Бухорий. 2015.-Б.48., Қаҳрамон Ражабов, Фаррух Темиров. 2015.-Б.32-33]. Shuningdek, Abu Rajo Ahmad ibn Yaqub al-Paykandiy at-Torobi Paykand ahlidan bo'lib, Torob qishlog'ida yashaganlar. Bu haqda, Lays ibn Sa'd hamda Abdulloh ibn Luhay'adan hadis rivoyat qilganlar [Абу Саъд Абдулкарим ибн Мұхаммад ибн Мансур ат-Тамими ас-Самъоний. -Б.86].

Tarixdan ma'lumki, XIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda, ya'ni Xorazmshohlarga qarshi 1219-1221 yillardagi mo'g'ullar istilosidavrida barcha shahar va qishloqlar butunlay vayron etildi. Keyingi davr yani, Chig'atoy ulusi davrida esa aholiga nisbatan zulmkorlik va zo'ravonlik tizimi yanada kuchayib bordi, soliq va majburiyatlarning keskin ravishda oshib borilishi natijasida xalq ommasining qo'zg'oloni ko'tarilgan. Shulardan eng mashhuri bu 1238 yilda sodir bo'lgan Mahmud Torobi nomi va jasorati bilan bog'liqdir. Tarixchi Muhammad ibn Juvayniyning "Jahongir Chingizzon tarixi" asarida, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si muqaddimasida, Mirzo Ulugbekning "To'rt ulus tarixi" kitobida mazkur qo'zg'oloni haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan [Ҳамро Асадов. 2008.-Б.18-20., Ҳамро Асадов. 2011.-Б.82-84].

Mahmud Torobi boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni mo'g'ullar imperiyasi zulmi va zo'ravonligiga qarshi qattiq zarba bo'ldi. Qo'zg'oloni oqibatida ikki tomondan 20 mingdan ortiq kishi halok bo'ldi. Mahmud Torobi, uning inilari Muhammad hamda Ali , Shamsiddin Mahbubiy ham jangda halok bo'ldilar. Aytish joizki, ushbu qo'zg'olondan so'ng mo'g'ullar Movarounnahrdagi har bir faoliyatini ehtirotkorlik bilan amalga osdirishga harakat qilishgan.

Manbalar va ayrim adabiyotlarda Mahmud Torobi hunarmand, ya'ni g'alvir yasovchi bo'lganligi qayd etilgan. Biroq uning Shayx bo'lganligi to'g'risida ham ba'zi manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Mirzo Ulugbekning "To'rt ulus tarixi" asarida shunday yozilgan: "...zora Shayx qadamalining barokati shaharga ham yetsa, shaharning notavon, ojiz xalqi ham Shayx qadamalari saodatidan bahramand bo'lsa" [Истиқлол йиллари: миллий - диний қадриятларнинг ҳалққа қайтиши. 2001.-Б.76]. Shuningdek, asarda Mahmud Torobiyning safdoshi - Shamsiddin Mahbubiy aqoyid olimi sifatida tavsiflanadi. Mirzo Ulugbekning yozishicha Mahmud Torobi tabiblik ham qilganlar. Asarda uning tabiblik karomatlari haqida ham ma'lumotlar ham mavjud [Нарзулло Йўлдошев. 1993.-Б.129-132., Нарзулло Йўлдошев. 1997.-Б.132-134].

Mo'g'ullar zulmi tugab, Amir Temur davriga kelib Torob qal'asida hayot unga tengdosh boshqa hududlar singari yana asl holiga keladi. XVI-XVII asrlarda ham obod bo'lganligi haqida tarixchi Mahmud ibn Vali o'zining "Bahrul asror" ("Sirlar dengizi") asarida bayon etgan. Buxoro amirligi davrida ham ushbu maskan amirlik tasarrufiga kiran. Amirlikka tegishli hududlar har yili Buxoro qushbegisi (bosh vaziri) tomonidan viloyat hokimlari yoki tuman qozilariga tuman va qishloqlarning ro'yxatini tuzish haqida topshriqlar berilgan. Jumladan, 1916 yil Xayrobod (Jondor) tumani miroxo'ri tomoni-

dan bosh vazir, qushbegiga xat yo'llagan: "Sharofat va shavqat e'tiboriga ya'ni qushbegi janoblariga arz qilinadiki, bu adolatli kunlarda Xayrobod tumanida amirning marhamadnomasidan ogoh bo'lmasdan (turgan) bir necha qishloqlari bor edi. Shu sababdan qushbegi janoblari mehribonchilik qilib mazkur Xayrobod tumanidagi qishloqlarni ravshan va xatosiz yozib, ro'yxat qilib, tezda yuborishni buyurgan edilar. Ko'rsatmaga binoan, mazkur tumanidagi qishloqlarni biladigan kishilarni keltirib, surishtirib ravshan va xatosiz ro'yxat qilib, yaqinda yuborildi. Muhr bosmasi Miroxurd, sana: - 1334/1916 yil" [А.Р.Мухаммеджанов. 2001.-С.197]. Shuningdek, 1926 yildagi ro'yxatga olishda ayrim hududlardagi joy nomlari birmuncha o'zgargan holda noto'g'ri yozilganligini ta'kidlash lozim [Ахтам Ахмедов.2017.-Б.6-9]. Buxoro vohasini (Zarafshon okrugini) rayonlashtirish tizimidagi 1926 yilgi ro'yxatda Rometan-Xayrobod rayoni, markazi Lag'laqa 4 raqamli markazi Darvesh bolo bo'lган hududga Torop qishlog'i kirgan [Ахтам Ахмедов. 2017.-Б.30-31].

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida dinga bo'lган munosabat, siyosiy ta'qiblar natijasida Mahmud Torobiq qal'asi anchagina nurab qoldi, uning atrofidagi qadimiy joylar paxta maydonlariga aylantirildi. Tepalik hozirda 4-5 hektar atrofida bo'lib, dala tadqiqotlari davomida hudud faxriyiali hamda tuman diniy mahkama vakillaridan Hoji Mahmud Nazarov hamda Hoji Sobir Raximovlar bilan qal'a xususida birmuncha ma'lumotlar olinda [Дала тадқиқоти. Жондор тумани, 2020 март]. Suhbatda tepalikda Mahmud Torobiyning ramziy qabri mavjudligi, uning oldida quduq (chuqurligi taxminan 40 metr atrofida), 1970 yellargacha quduq mazkur hududning yoshi ulug' vakillari (Yodgor va Hasan otalar) tomonidan tozalanib kelinganini ta'kidlaydi Mahmud Nazarov. Tepalikda eski uylarning paxsalari mavjud, hududda masjid bo'lганligi, sobiq sho'ro davrida rayon markaziga madaniyat uyi qurilishi bahonasida buzib olib ketilganligi ta'kidlab o'tildi. Hozirgi davrda ham masjidning o'rni mavjud. Tepaning quyosh chiqar tomonida katta ko'k tosh mavjud bo'lib, hudud aholisi undan ko'k yo'talga (qattiq shamol-lash) ixlos qilib, toshga qatiq surtib kasallangan shaxslarni yalattirib shifo so'rashganlar. Aslida bu ko'k toshlar o'rta asrlarda nufuzi baland boy xonardon, amaldorlarning qabri ustiga qo'yilgan hisoblanadi (oddiy aholi bunday qilishga qurbi yetmagan). Shuningdek tepalikning pastki qismida 5 metr atrofidagi qabr mavjud bo'lib, uning oldida tug' ham bor. Ko'hna Torob qishlog'i qal'asi qoldiqlari ham mavjud. Biroq bu xalq qahramoni nomini abadiylashtirish masalalari ko'ngildagidek emas. Jondor markazida Mahmud Torobiq nomidagi ko'cha mavjud. 2020 yilda Buxoro viloyati hamda Jondor tuman hokimligining sa'yi harakatlari bilan tuman markazidagi madaniyat va istirohat bog'ida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib, mazkur go'shada Mahmud Torobiq nomidagi harbiy-vatanparvarlik bog'iga aylantirildi. Bog' markazida Mahmud Torobiyning umumiy uzunligi 8 metrlik bo'lган haykali o'rnatildi. Shu tariqa bir mard ajdodimizning xotirasi abadiylashtirildi [Jamiyat. 02.03.2020 yil., Madaniyat.14.01.2021yil].

Istiqlolga erishganimizdan so'ng vatanimiz tarixiga bo'lган e'tiborning kuchayishi, tarix va tarixiy jarayonlarga xolisona yondashish, millat va xalq qahramonlari bo'lган vatanparvar qahramonlar, ulug' avliyo va anbiyolar, muqaddas qadamjolarni

obod etish, ularni hozirgi avlodga o’rnak bo’lувчи ilmiy, diniy, ma’naviy, tarbiyaviy fazilatlarini o’rganish, qayta tiklash hamda teranroq anglash, kelajak yoshlarning milliy-ma’naviyatini yanada yuksaltirish, muqaddas ziyyaratgoh-qadamjolarni obod etish har bir fuqarolarimizning burchi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абу Тохирхўжа Самарқандий “Самария”(Самарқанд мозорлари зикри). Т., 2009. –Б.122.
2. Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). (VIII-XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳакида маълумот). Т., 2017. –Б.86.
3. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Т., 2015. –Б.48.
4. Қахрамон Ражабов, Фарруҳ Темиров Жондор тумани тарихи (қисқача маълумотнома). Т., 2015. –Б.32-33.
5. Ҳамро Асадов. Беш мўжиза – беш тарих. Бухоро. 2008. –Б.18-20.
6. Ҳамро Асадов. Аждодлари қимматли юрт. Бухоро., 2011. –Б.82-84.
7. Истиқлол йиллари: миллий-диний қадриятларнинг ҳалққа кайтиши (Бухоро). Т., 2001.-Б.76.
8. Нарзулло Йўлдошев. Бухородаги айrim авлиёлар тарихи. Бухоро., 1993. –Б.129-132.
9. Нарзулло Йўлдошев. Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро., 1997. –Б.132-134.
10. Насиленные пункты Бухарского эмирата (XIX-нач XX в). Отвественный редактор академии АНРУз А.Р.Мухаммеджанов.Т., 2001.-С.197.
11. Ҳалқ турадиган жойларнинг рўйхати. Самарқанд Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссиясининг нашри, 1926 йил. Кириш сўзи, араб алифбосидан табдил ва айrim изоҳлар муаллифи Аҳтам Ахмедов. Бухоро., 2017. –Б.6-9.
12. Jamiyat.02.03.2020 yil., Madaniyat. 14.01.2021 yil.

FROM THE HISTORY OF LOCAL ADMINISTRATION OF THE UZBEK SSR (50S OF THE XX CENTURY)

Rashidov Shokhjahon,

*PhD student of the Institute of History,
Academy of sciences of Uzbekistan (Uzbekistan)*

Abstract. This article analyzes the role of local Soviets in the management of the Uzbek SSR in the 1950s. The author describes the legal basis of local councils, the order of their work, their problems on the basis of historical literature, archival documents.

Key words. Local Soviets, deputies, congress, district (province), district, city, township, village, aul, session, executive committee.

The USSR Constitution of 1936 changed the entire system of Soviet governance. According to him, the Soviets of Workers’, Peasants’ and Red Army Deputies became the Soviets of Workers’ Deputies. Under the new constitution, Soviet congresses were abolished. The Soviets were formed as a permanent governing body.

The Constitution of the Uzbek SSR of 1937 states that the deputies of workers as local government bodies consist of district (regional), district, city, township, village, aul Soviets [1].